

## TEXNIK TOPSHIRIQ

«Navoiy issiqlik elektr stansiyasi» AJ elektr qurilmalarida 2026-yilda profilaktik sinov va sozlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha.

№	Qo'yilgan asosiy talablar ro'yxati	Asosiy talablarning mundarijasi
1	Buyurtmachi	«Navoiy IES» Aksiyadorlik Jamiyati Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati, Karmana tumani, Uyrot MFY.
2	Xizmatlarning nomi va maqsadi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. DFZ-504 va DFZ-201 turdagi havo liniyalari differensial-fazali himoya panellarini (4-komplekt) to'liq profilaktik ko'rikdan o'tkazish ba sozlash.</li> <li>2. Elektrolizor qurilmalarining to'g'rilash agregatlarini (VU-1, VU-2) texnik diagnostika qilish va sozlash.</li> <li>3. TG-11 va TG-12 generatorlarining tiristorli qo'zg'atish tizimlarini (ARV-SD) profilaktik tiklash.</li> <li>4. «KEDR16» avariya qarshi avtomatika panellarini profilaktik tiklash. 2-КОМП.</li> <li>5. Avariya hodisalarini qayt etuvchi (PAC) "NEVA" qurilmasini profilaktik nazorati. 3 komp</li> <li>6. "OR" turidagi qo'zg'atish tizimini cheklovchi qurilmalarda profilaktik nazorati. 4-komp</li> <li>7. Kuch transformator kiritgichlarining profilaktik sinovlarini o'tkazishda va asosiy elektr qurilmalarining grafiklarini tuzishda amaliy yordam ko'rsatish.</li> <li>8. Asosiy elektr qurilmalarining kontakt ulamalarida teplovizion nazorat.</li> <li>9. Energetik moylarining xromatografik tahlilini amalga oshirish.</li> </ol>
3	Xizmatlarni amalga oshirish uchun asos	«Navoiy IES» AJda 2026-yilda rejalashtirilgan sinov, sozlash ishlariga sex tomonidan berilgan bildirgi asosida buyurtma berilgan va "Smart integrity me" MChJ QK rahbariyati tomonidan 2026 yil 14-yanvar sanasidagi 48-sonli ruxsat xati olingan.
4	Xizmat ko'rsatish shartlari	Bajariladigan ishlar O'zbekiston Respublikasi O'z DSt, GOST va IESH normativ hujjatlar va qonun hujjatlariga muvofiq ekspluatatsiya qilish-sozlash, sinash, profilaktik ishlarini bajarish uchun zarur hujjatlarga (litsenziyalarga) ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.
5	Taqdim etilayotgan xizmatlar uchun ishtirokchilariga qo'yilgan talablar	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sanoat va mavjud korxonalarda loyiha-sarhisob hujjatlarini ishlab chiqish litsenziya yoki ruxsatnomaning mavjudligi.</li> <li>2. Bajariladigan ishlar hajmi va turlari bo'yicha umumiy ish tajribasi (oldingi shunga o'xshash ishlar uchun mijozlarning</li> </ol>

		<p>fikr mulohazalarini taqdim etish).</p> <p>3. Moliyaviy barqarorlik (moliyaviy hisobotlarga muvofiq ta'minlash).</p> <p>4. Korrupsiyaga qarshi kurash talablari buzilishining oldini olish uchun yozma arizani majburiy taqdim etish.</p> <p>5. Malakali mutaxassislari ro'yxatini taqdim etish.</p>
6	Ishni bajarish muddati	Ushbu texnik topshiriqda ko'rsatilgan ishlar 2026 yilning 2-4 chorak davomida buyurtmachi tomonidan taqdim etiladigan oylik ta'mirlash grafiklari asosida amalga oshiriladi.
7	Ishtirokchilarning tugallangan ishni Buyurtmachiga topshirish talabi	<p>Ijrochi tomonidan taqdim etilishi kerak:</p> <p>1. Ishni bajargandan so'ng, pudratchi buyurtmachiga belgilangan shaklda tuzilgan va imzolangan zarur hujjatlar, bayonnomalar, texnik xulosalar, texnik hisobotlarni topshirishi kerak, ish tugagan va ishni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 30 kundan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.</p> <p>2. Ish paytida uskunadagi nuqsonlar aniqlangan taqdirda, pudratchi darhol buyurtmachining vakolatli shaxsiga xabar berishi kerak, so'ngra nuqsonli bayonot yoki dalolatnoma tayyorlanadi.</p> <p>3. Ushbu texnik topshiriqda bajarilgan sozlash ishlari xulosaning aniqligi sifatiga javob beradi xulosa asosida qurilmaga zarar keltirsa, pudratchi keltirilgan zararni to'lab berishi shart va zarur.</p> <p>4. Bajarilgan ishlar to'g'risidagi texnik hisobotlarni ilova qilgan holda ishning har bir bosqichi tugagandan so'ng buyurtmachiga bajarilgan ishlarning dalolatnomalarini taqdim etish.</p> <p>5. Bajarilgan ishlar dalolatnomasida va texnik hisobotlarda aniqlangan xato va kamchiliklar uchun pudrat tashkiloti javobgar.</p>
8	Ish turi	<p>1. <b>220kV liniyalarning differensial-faza himoyasi panelining rele qismini sozlash</b> (L-17-A, L-17-D, L-17-X1, L-17-X3); 110-500 kV liniyalarni himoyalash uchun yuqori chastotali qabul-uzatgichni nazorat sinovidan o'tkazish; Akkumulyator batareyalariga texnik xizmat ko'rsatish.</p> <p>2. <b>TDV-1 (Elektrolizer qurilmasi)</b> profilaktik tiklash, asosiy funksional qurilmalarini profilaktik tiklash.</p> <p>3. <b>TG-12 tiristorli qo'zg'atish tizimini profilaktik tiklash, TG-11 tiristorli qo'zg'atish tizimini profilaktik tiklash</b> (Dastlabki qo'zg'atish bloki (UNV), Asosiy kuchli ta'sir etuvchi avtomatik qo'zg'atish regulyatori (ARV-SD), Zaxira avtomatik qo'zg'atish regulyatori (PDU)).</p>

		<p>4. <b>“KEDR16” avariyaaviy qarshi avtomatika panellarini profilaktik tiklash</b> (Kaskad rejimlari va VCH trakt sozlashlari; Signalizatsiya va operativ tok shinalari; Shinalarning panellarga ulanishini tekshirish; Texnik parametrlarni aniqlash sinovlari).</p> <p>5. <b>“NEVA” tipidagi avariyaaviy rejimlarni mikroprotessorli qayd etish qurilmalarini profilaktik tiklash</b> (Profilaktik texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirgacha bo‘lgan sinovlarni o‘tkazish, tavsifnomalarni berish, nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish; konfiguratsiya qilish; laboratoriya sozlashlari va tavsifnomalarni olish; ishlash ishonchliligi va tavsifnomalar barqarorligini sinash).</p> <p>6. <b>OR tipidagi qo‘zg‘atishni cheklagich qurilmasini profilaktik tiklash</b> (OR-3, OR-4, OR-8, OR-9). Qo‘zg‘atishni cheklagich (OR) qurilmasini ta‘mirlash (sinov dasturini tuzish va kelishish; OR qurilmasining natural sinovlarini o‘tkazish; sinov materiallarini ishlash va bayonnoma tuzish).</p> <p>7. <b>Navoiy IESning 110-220 kV elektr jihozlari, yuqori voltli kirish qurilmalari, podstansiya izolyatorlarini tozalash va moylash profilaktik sinov jadvallarini tuzish va bajarishda ko‘mak ko‘rsatish</b>, momaqaldiraqdan himoyalash vositalarini joylashtirish sxemalari va momaqaldiraq mavsumiga tayyorlash tadbirlarini kelishish.</p> <p>8. <b>Navoiy IESning 110-220 kV kuchli elektr jihozlari kontaktlarini teplovizion nazorat qilish</b> (yiliga 4-marta); Elektr jihozlari va tok o‘tkazgich qismlarning issiqlik holatini aniqlash, qizib ketgan tugunlarni( ulangan joylar) aniqlash; Olingan ma‘lumotlarni ishlash, natijalarni tahlil qilish, bayonnoma tuzish, tavsiyalar berish.</p> <p>9. <b>Transformator moyini to‘liq tahlil qilish</b>, moyni barqarorligi va «Ionol» qo‘shimchasi miqdori bo‘yicha tahlil qilish; moyda erigan gazlarni xromatografik tahlil orqali kuch transformatorlar holatini diagnostika qilish.</p>
9	Ishning narxi	Ishlarning qiymati smeta hujjatlari ishlab chiqilgandan so‘ng aniqlanadi. To‘lov amalga oshirilgan ishlarning haqiqiy hajmidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.
10	Moliyalashtirish manbai	«Navoiy issiqlik elektr stansiyasi» AJ ning o‘z mablag‘lari hisobidan.

11	Bajaruvchi tashkilot	«Davlat xaridlari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq tender, elektron do'kon yoki konkurs orqali aniqlanadi.
----	-------------------------	---

Izoh: ko'rsatilgan barcha hujjatlar rahbarning imzosi va muhriga ega bo'lishi kerak.